


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI  
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON  
PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY TADQIQOT INSTITUTI



**"UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA  
TABIIY FANLARNI O'QITISHGA  
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR:  
MUAMMO VA YECHIMLAR"**

respublika ilmiy-amaliy anjuman  
materiallari



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI**


**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON PEDAGOGIKA  
FANLARI ILMIY TADQIQOT INSTITUT**

**TABIY FANLARNI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI BO'LIMI**

**"UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TABIIY FANLARNI  
O'QITISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR:  
MUAMMO VA YECHIMLAR"**

**respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari**



**Тошкент-2023**

**ЖАҲОНГИРЛАНДИРУВЧИЛАР**

**TALABALARНИ О'QITISH JARAYONIDA TRANSVERSAL  
KOMPETENSIYALARНИNG ZARURIYATI**

**MUXIDOVA O.N.,**  
*T.N.Qori Niyoziy nomli O'zPFITI doktoranti*

Oliy ta'limning vazifasi talabalarga kelajakdagi kasbiy hayotida muvaffaqiyat qozonishlariga imkon beradigan bilim va malakalarni berishi shart. Biroq, bundan tashqari, oliy o'quv yurtlari talabalarni transversal kompetentsiyalarga o'rgatish vazifasini ham o'z zimmasiga olishi va bitiruvchilarning mehnat bozorida muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Biz bilamizki, kompetentsiya shaxsning bilganlari bilan emas, balki turli vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun ma'lum bir muhitda foydalanish qobiliyati bilan belgilanadi.

Transversal kompetentsiyalar ular qaerda bo'lishidan qat'i nazar, har qanday professional vaziyatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan kompetentsiyalar to'plami sifatida qaraladi. Ushbu kompetentsiyalar etakchilik, muomala, muammolarni hal qilish qobiliyati, ijodkorlik va jamoada ishslash bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shuning uchun kompetentsiya harakatni, ya'ni qanday harakat qilishni bilish va olingan bilimlardan foydalanish ya'ni to'plangan bilimlarni ma'lum bir kontekstga o'tkazish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu esa hozirgi pedagogik ta'limni va o'qituvchining hozirgi profilini o'zgartirish kerak degan xulosani ham beradi, o'qituvchi mutaxassis, maslahatchi, vositachi, moderator bo'lib, ushbu jarayonda talabalarning transversal kompetentsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchi sinfga haqiqiy dunyonи olib kirish, muammolarni hal qilishga qaratilgan o'quv vaziyatlarini loyihalash, hamkorlikda o'rganish, yangi texnologiyalar va baholash shakllaridan foydalanish hamda didaktik jarayonni talaba va o'quv jarayoniga yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Ta'lim ham o'qituvchining roli kabi yangi talablarga javoban o'zgaradi. O'qituvchi pedagogik faoliyat sub'ekti sifatida pedagogik faoliyat jarayonida ko'plab funksiyalarni bajaradi. Ushbu funksiyalarni bajarishdagi muvaffaqiyat o'qituvchining shaxsiyati, uning kasbiy sifatlari bilan belgilanadi. O'qituvchining ideal modeli - birinchidan, o'qituvchi ega bo'lishi kerak bo'lgan shaxsiy sifatlar; ikkinchidan, o'qituvchining funksiyalarini bajarishi uchun bilim, ko'nikma va malakalardir. Hozirgi vaqtida o'qituvchilar rag'batlantiruvchi rolni o'z zimmalariga olishlari, o'quv jarayonining natijalarini tahlil qilishlari va o'quvchilarga o'rganishlari uchun zarur ko'nikmalarni egallashga yordam berishlari kerak.

Transversal ko'nikmalar odamning bilim olishi bilan parallel ravishda rivojlanadigan va hissiy aql bilan bog'liq bo'lgan qobiliyat va ko'nikmalar bo'lib, u boshqalardan shu bilim va malakasi bilan farq qiladi.

Transversal ko'nikmalar to'plami faoliyatning bir sohasidan boshqasi bilan farq qilishi mumkin. Masalan, o'qituvchilar uchun o'z sohasidagi bilimlari bu uning kasbiy ko'nikmalari, chet tilidagi nutqi, axborot va raqamlı texnologiyalardan foydalana olishi bu transversal ko'nikmalardir. Boshqa tomondan, raqamlı texnologiya ko'nikmalari axborot sohasi xodimlari uchun kasbiy ko'nikma sifatida qaraladi, aksincha o'qituvchilar uchun muhim transversal ko'nikmalardir.

Transversal kompetentsiyalar tez moslashish va faoliyatning bir sohasidan ikkinchisiga o'tish qobiliyati bilan ajralib turadi, shuningdek, mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o'yndaydi.

Bugungi kunda oliy ta'limning asosiy maqsadi nafaqat jamiyatni mutaxassislar bilan ta'minlash, balki jamiyatning barcha ehtiyojlarini qondirish, raqamlı texnologiyalardan foydalanish, mehnat bozorida moslashuvchanlik va ijodkorlikni yaratish, jamoada ishslash va mustaqil ravishda qarorlar qabul qilishni fuqarolik va kasbiy mahorati orqali hal eta oladigan madaniyatlararo bilimlarga ega mutaxassislar tayyorlashdir.

Demak, ransversal kompetentsiya – bu rivojlanayotgan jamiyatdagi ta'lim va fanning ko'plab sohalarini qamrab oladigan, kelajak avlodning o'z maqsadiga erishishi uchun to'g'ri va samarali zarur yo'l deb hisoblanadi.

Shuning uchun hozirgi vaqtida har bir kishi XXI asr ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Masalan, kompyuter savodxonligi, chet tillarini bilish, madaniy ochiqlik kabi omillar shaxsiy rivojlanish uchun zaruriy shartlar hisoblanadi.

O'qituvchilar ushbu malakalarni, ko'nikmalarni rivojlantirganliklariga asoslanib, ular bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ta'limidan tashqari, o'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda mehnat bozorida talab qilinadigan malakali kadrlar tayyorlashga hissa qo'shishlari lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oliy o'quv yurtlari talabalari transversal kompetensiyalarga ega bo'lishlari kerak, chunki mehnat bozori mutaxassislarni ma'lum bir tayyorgarlik yo'nalishi bo'yicha aniq bilimlaridan ko'ra ko'proq ijtimoiy ko'nikmalari, etakchilik qobiliyati, boshqaruv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ko'nikmalari bilan bog'liq sifatlarini yuqori baholaydi. Bu shuni ko'rsatadiki, bunday muhim ko'nikmalarni talabalar iloji boricha samarali va ongli ravishda rivojlantirishlari kerak va ularni oliy ta'lim tizimida o'qitish jarayonida shakllantirish bo'lajak bitiruvchilarga yanada muvaffaqiyatli ishga joylashishlari uchun raqobatbardosh darajada erishishga yordam beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Crasovan, M. *Transversal competences or how to learn differently*. In *Communication Today: An Overview from Online Journalism to Applied Philosophy*; Micle, M., Mesaros, C., Eds.; Trivent Publishing: Budapest, Hungary, 2016; pp. 171–178, ISBN 978-615-80340-6-7.
2. Langa, C. *The contribution of transversal competences to the training of the educational sciences specialist*. *Procedia Soc. Behav. Sci.* 2015, 180, 7–12.
3. Szafranski, M.; Golinski, M.; Simi, H. *The Acceleration of Development of Transversal Competences*; Centria University of Applied Sciences: Kokkola, Finland, 2017; ISBN 978-952-7173-26-8.
4. Tsankov, N. *Development of transversal competences in school education (a didactic interpretation)*. *Int. J. Cogn. Res. Sci. Eng. Edu.* 2017, 5, 129–144.

\* \* \* \*

## **RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

**TADJIBAYEVA R.M.,**

*Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

Bugungi kunda elektron hisoblash texnikasi qo'shimcha ta'lim muassalarini jihozlanishining ajralmas qismidir. Raqamli texnologiyalarni qo'llash ta'limga sifat jihatidan yangi tomondan yondashuvga imkon beradi.

Kompyuter dasturlaridan foydalanishni qator muhim vazifalar hal qiladi:

- ta'lim jarayonini ko'rgazmali qiladi;
- javoblarni baholash effektivligini oshiradi;
- ta'limga individual yondashishga imkon beradi;
- bilim oluvchilar bilimlarini tekshirish vaqtini kamaytiradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish o'zi mashg'ulotni o'tishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Istalgan fanni raqamli texnologiya asosida o'qitish o'quvchilar fikrlashlari uchun yaxshi imkoniyat bo'lib, bilim oluvchilarning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Multimediyali, prezentatsiyali, onlayn testli, klassik mashg'ulotlar o'quvchilar bilimlarini chuqurlashtirishga imkon beradi. Ingliz maqolida aytlishicha "Men eshitdim va unutdim, ko'rdim va eslab qoldim" yoki rus maqoliga asosan "Yuz marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan yaxshi". Demak, raqamli texnologiyalar yordamida tashkil qilingan mashg'ulotlar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda katta yordam beradi.

Elektron ta'lim quyidagi ikki ko'rinishlarga ajratiladi:

<b>M.T.XONNAZAROVA, S.T.XONNAZAROVA,</b>	<i>Oliy ta’lim muassasalarida zoologiya fanini o‘qitish metodikasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirishning (suyakli baliqlar sinfi misolida) usullari</i>	<b>94</b>
<b>M.T.UMARALIYEVA, I.Y.ABDURAHMONOVA</b>	<i>Ta’lim natijalarini mezon asosida baholash</i>	<b>97</b>
<b>M.I.XUDAYBERDIYEV</b>	<i>Tasviriy san’at darslarida tabiiy fanlararo integratsiyalarining ahamiyati</i>	<b>100</b>
<b>M.R.MO‘MINOVA, A.Q.RAXMATULLAYEVA</b>	<i>Biologiya fanini o‘qitishda mantiqiy o‘yin mashqlaridan foydalanib o‘quvchilarda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish</i>	<b>103</b>
<b>M.G‘.BORATOVA B.S.O‘RINOV</b>	<i>O‘zbekiston tabiiy geografiyasi fani taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari va ta’lim jarayoniga qo‘yiladigan zamонавиј talablar.</i>	<b>105</b>
<b>M.G‘.BORATOVA O.H.ISHBO‘YEVA</b>	<i>Talabalarning kasbiy kompetetnligini rivojlantirishing ahamiyati</i>	<b>107</b>
<b>N.SH.MANNOPOVA</b>	<i>Bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida salomatlikni saqlash kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari</i>	<b>110</b>
<b>N.T.MISIROVA, N.ABDUKAYUMOVA, U.BAXTIYOROVA</b>	<i>Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish ijtimoiy zarurat sifatida</i>	<b>112</b>
<b>N.SHARIPOVA</b>	<i>Umumiy o‘rta talim maktablarida o‘quvchilarining biologiyadan masala va mashqlarni evristik usulda echish metodikasini rivojlantirish. (ekologik piramida masalalari misolida)</i>	<b>114</b>
<b>N.R.MASHARIPOVA</b>	<i>Amir temur va zahiriddin muhammad boburning tabiatga nisbatan oqilona munosabati vositasida o‘quvchilarda atrof-muhitni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan tanqidiy fikrlashni shakllantirish imkoniyatlari</i>	<b>117</b>
<b>N.X.NIZAMIDDINOVA</b>	<i>biologiya darslarida zamонавиј metodlarning ahamiyati</i>	<b>119</b>
<b>O.N.MUXIDOVA</b>	<i>Talabalarni o‘qitish jarayonida transversal kompetensiyalarning zaruriyati</i>	<b>122</b>
<b>R.M.TADJIBAYEVA</b>	<i>Raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari</i>	<b>124</b>